

**XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHIDAGI O'ZBEK SHE'RIYATIGA
FAYNBERGNING TA'SIRI.****Toshmuxammadova Sevinch Xayrulla qizi***O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universteti**Xalqaro Jurnalistika Fakulteti 1-bosqich talabasi**E-mail:sevinchtoshmuxammedova06@gmail.com**Tel;+998904531405***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:07.12.2025**Revised: 08.12.2025**Accepted:09.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***ijodiy meros, erkinlik,
vatan tuyg'usi, ruhiy
holat, jamiyat.*

Mazkur maqolada Aleksandr Faynberg o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi va o'ziga xos siymosi ekanligiga amin bo'lasiz. XX asr oxiri va XXI asr boshida O'zbekistonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar madaniy jarayonlar va adabiy muhit shoir ijodiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Faynbergning o'zi ham shu davrdagi she'riyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Uning asarlarida zamon ruhi, insoniyat dardi, ruhiy izlanishlar va millatlararo totuvlik g'oyalari chuqur ifoda etilgan. Bu jihatdan uni o'zbek she'riyatining muhim vakillaridan biriga aylantirdi. O'zbek she'riyating yorqin namoyondalari juda ko'p, shu bilan bir qatorda o'zbek she'riyatiga o'z hissasini qo'shgan adib bu hech shubhasiz Aleksandr Faynbergdir. Buning yaqqol isbotini quyidagi maqola orqali yanada yaxshiroq bilib olasiz.

Aleksandr Faynberg tarjimalari, she'rlari rango-rangliklari bilan she'riyat dunyosini bezab turadi. U o'zbek xalqining ruhini mentalitetini, tarixiy xotiralasini chuqur anglagan holda she'rlar yozgan. Misol tariqasida shoirning "vatandan kechma", Imehr-muhabbat singari g'oyalar ustuvor bo'lib bu jihatlar o'zbek she'riyatining umumiy rivojiga sezilarli

darajada hissa qo'shgan. Aleksandr Faynberg XX-XXI asr o'zgarishlarini she'riyat orqali aks ettirdi. Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotida vatan, erkinlik, ma'naviy uyg'onish kabi harakatlar kuchayib ketdi. Faynberg bu jarayonlarda faol ishtirok etdi va she'rlari orqali jamiyat ruhiy holatini tasvirlab bera oldi deb bemalol ayta olishimiz mumkin. Shu bilan birga uning ijodida tarixiy xotira tinchlikning qiymati, insonning ichki erkinligi, urush va iztirob izlari mavzulari chuqur ochilgan. Shoirning bu yo'nalishlari esa o'zbek she'riyatida zamonaviy fikrlashni kuchaytirdi, o'chmas iz qoldirdi va yosh avlodlarga ilmiy-adabiy maktab sifatida ta'sir ko'rsatdi. Aleksandr Faynberg nafaqat shoir balki, ko'plab yosh ijodkorlar uchun ustoz bo'lgan.

Uning adabiyotga bo'lgan munosabati, so'zga hurmati, ruhiy kuchni yuksaltiruvchi she'riyati yosh shoirlar ijodida sezilarli darajada davom etmoqda. Aleksandr Faynberg rus tilida ijod qilgan shoir bo'lishiga qaramay, uning asarlarida o'zbekistonning ruhi, xalqining dunyoqarashi va tarixiy xotirasi chuqur aks etadi. Shoirning ijodiy merosi XX asr oxiri va XXI asr boshida shakllangan adabiy jarayonlarga yangi ohang yangi tasavvur va yangicha qarashlar olib kirdi. Xususan insonning ichki olamine tadqiq etish umuminsoniy qadriyatlarni kuylash, zamon muammolariga munosabat bildirish kabi jihatlar Faynberg she'riyatining asosiy mezonlaridir. Shu bois Aleksandr Faynbergning mazkur davrdagi o'zbek she'riyatiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganish nafaqat adabiy merosini anglash, balki zamonaviy tafakkur taraqqiyotini tahlil qilish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Uning she'rlarida insonni ruhiy kechinmalari, taqdir sinovlari, iztirob va umid kurashi hayotining o'tkinchiligi, ma'naviy barqarorlik kabi falsafiy masalalar nihoyatda sodda, lekin chuqur tasvirlangan. Faynberg ijodi o'zbek she'riyatidagi eng muhim fazilat-milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuviga ulkan hissa qo'shdi. Rus tilida ijod qilsa-da, u o'zbek xalqiga xos mehr, bag'rikenglik, vatanparvarlik va insoniylik, fazilatlarini yuksak badiiylik aks ettirgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asr oxiri va XXI asr boshidagi o'zbek she'riyatining taraqqiyotida Aleksandr Faynbergning o'rni beqiyosdir. U nafaqat o'zining betakror she'riy uslubi bilan balki millatlararo totuvlikni birlashtira olgan insondir. Uning ijodi butun umrga tatigulikdir deb barilla ayta olamiz. Bundan tashqari barcha yosh ijodkor va tarjimonlarga ham uning ijodi yuksak bir namuna bo'ladi. Bu esa adabiyot dunyosini yuksalishida xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. <https://arm.samdhti.uz>
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. <https://muddarisziyo.uz>
4. <https://45parallel.net>
5. Karimov N. Zamonaviy o'zbek lirikasi tahlillari-Toshkent; Fan2010
6. Ziyouz.com kutubxonasi
7. uzdjtu@uzswlu.uz

